




E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 5, iyun

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoir Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES ***
ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ

Hamroyev Y.Y., Bahronova D. B.	M Shturm-Liu vill masalasini yuqori aniqlikdagi variatsion ayirmali sxemalar yordamida yechish	4
Elmuradova H.B.	A direct problem of 1D pseudoparabolic integro-differential equation	9
Ishmamatov M.R., Esanov N.Q., Xalilov Sh.F., Jo'rayev O'.Sh.	Ichida suyuqlik bo'lgan ikki ipli quvurda seysmik to'liqlar difraksiyasi	14
Imomova Sh.M., Islomova D.X. Mirzoyeva G.T.	Mathcadda algebraik masalalarni yechish	19
Jumayev J.	Simulation of a free jet using Sekundov's one-parameter turbulence model	26
Esanov N.Q. Xalilov Sh.F. Jo'rayev O'.Sh. Rahmonova G.X.	Silindrik tayanchli tunnelda harakatlanuvchi normal va burama yuklarning birgalikdagi harakati	32
Shodiyeva E'.B. Kengboyev S.A. Dusanova G.M.	Sovun ishlab chiqarish texnologiyasi	38
Sharipova M.Sh.	Uchinchi tartibli operatorli matritsaning muhim spektr tarmoqlari: 1 o'lchamli hol	42
Toshturdiyev A.M.	Eigenvalues of the two-particle Schrödinger operator with a cylindrical potential	50
Esanov N.Q.	Yupqa devorli sterjenda burama to'liqin dispersiyasi	59
Турдиев Х.Х., Умарова Ш.Х.	Линейные краевые задачи для уравнений эллиптического типа	65
Yashiyeva F.Y.	MathCAD redaktori yordamida umumlashgan Fridriks modeli xos qiymatlarini tadqiq qilish	72
Eshankulov H.I., Hayitova D.I.	Sog'liqni saqlash tizimida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda raqamlashtirishni joriy etish	77
Пардабаев М.А., Мажидова М.Г.	Асимптотика собственных значений билапласиана с возмущением ранга один на одномерной решётке	82
Содиков М.К., Бобоқулова Ф. Ш., Киямова М. И.	Ацетилен эфирларни галогенли ҳосилалари синтези натижаларини математик қайта ишлаш	91
Назаров М. Р., Назарова Н. М., Нарзуллоев У.А.	Физика таълим тизимида радиотехника элементларидан фойдаланиш	96
Amrilloyeva K.S., Umarova Sh.H.	Kasr tartibli diffuziya tenglamasi uchun nolokal chegaraviy shartli masalada manba funksiyasini aniqlash	102

Хамраев Ю.Ю., Норова М.О.	Об однородных разностных схемах высокого порядка точности для краевой задачи с особенностью	110
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Asadov T.H.	Predmet-belgi ma'noli yasama so'zlar va ularning lug'atlardagi ifodasi	116
Rakhmatova M.M.	Pragmatic analyses of implicature in the novel "The fault in our stars" by John Green	122
Adizova N.I.	Badiiy matnning lingvostilistik tadqiqi va ijodkor uslubi	126
Alisoy H.H.	A comparative study of Lithuanian and old Prussian	133
Boltayeva N.R.	Siyosiy tilshunoslik fan sifatida	139
Axmedov A.R., Hamroyeva M.R.	Badiiy asarlardagi antroponimlarning lug'aviy qatlam masalasiga doir lingvistik tahlil va xulosalar	144
Mamaraximov S.	Leksemalarning barqarorlashishi hamda nutqiy ma'noning lisoniylashuvi	149
Mamatqulov A.	O'zbek tilida so'z yasalishi Azim Hojiyev nazdida	153
Mardonova S.O.	Muallif nutqi metaforalarining struktur-semantik tabiati xususida (U.Azim she'riyati misolida)	157
O'razov A.D.	Tog'ay Murod asarlarida evfemizmlar va disfemizmlardan foydalanish mahorati	161
Исақова З.З.	Тилшуносликдаги баҳо семантик категорияси ва ёндош семантик ҳодисалар	165
Шарипов Ж.	Сўз яшашда лисоний ва нолисоний омиллар	170
Шарипов Ф.Г.	Морфологик луғатларнинг яратилиши – янги амалий босқич калити	175
Saidov S.S.	An overview of corpus linguistics and its benefits in language teaching	180
Babayev M.T.	Nemis va o'zbek tillarida evfemizmlarni qiyosiy o'rganish	185
Niyozova Sh.T.	The contrastive analysis and research of national specificity of phraseological semantics	193
Seyidov R.R.	Effective approaches for teaching arabic: a comprehensive guide to enhancing language instruction	197
Abatov D.R.	Antroponimik indikatorlar va ularning xalq dostonlari matnida qo'llanishi (Qashqadaryo xalq baxshilari dostonlari misolida)	209
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Annaxasanova I.B.	Analysis of scientific works on studies of Alisher Navoi in Russian orientalism in the XX century	213
Fozilova O'F.	Firdavsiyning "Shohnoma" asarida navro'z va unga doir tushunchalarning yoritilishi	217
Jabbarova M.X.	Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor asarlarida ayol obrazidagi ruhiyat tipologiyasi	223
Khabibova M.N.	Jejms Joysning adabiy uslubi va asarlaridagi epistolyar texnika	229

Mashrapova G.A.	Hayotiy-maishiy ertaklarda safar motivi: semantikasi va poetik vazifalari	235
Muxidillayev F.F.	Erkin Vohidov she'rlarida ritorik so'roq gaplarning lingvopoetik talqini	240
Qudratova M. Sh.	Асқар Маҳкам шеърлятида мавзу ранг-баранглиги	244
Saidova N.A.	Joan Rouling ijodida ingliz bolalar fentezi janri taraqqiyoti	249
Shamsiddinova S.B.	Ajdaho kultining genezisi va uning "Gilgamish" eposida tutgan o' rni	253
Saidova N.M.	Rahim Vohidovning "Navoiy va ilohiyot" tadqiqotida germeneytik yondashuvning ustuvorligi	258
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Eshonqulov H.P., Hamidov A.H.	Muallif tahririda ayrim baytlarning tushirilishi	266
"NAVOIY GULSHANI"		
Bekova N.J., Saidova M.Y.	"Qoshi mehrobida vaslin istab aylarmen duo..."	270
FALSAFA, HUQUQ VA SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Кахарова М.	Analysis of social and spiritual research conducted on middle ages in Kazakhstan	273
PEDAGOGICS		
Bakhromova A.A.	Methods of teaching physics using various pedagogical technologies	278
Nurolliyev N.Sh.	Using modern methods in teaching physics in technical fields	287
Salixova N.N.	Madaniyatlararo muloqotda ingliz tilini o'qitishning kommunikativ kompetensiyalari	292
TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY		
Ergashov Z.B.	Qoraxoniylar davlatining davlat boshqaruv tizimi va madaniyati	298
Pulatova M.T.	"Buyuk Temurlang" asarining yozilishiga asos bo'lgan buyuk sarkarda Amir Temur shaxsi XVI asr tarixchilari talqinida	302
CONGRATULATION *** QUTLOV *** ПОЗДРАВЛЕНИЕ		
Хамидов Обиджон Хафизович	Бухоро замонавий иқтисодиёт илмий мактабининг асосчиси Наврўз-Зода Бахтиёр Негматович 70 ёшда	311

“BUYUK TEMURLANG” ASARINING YOZILISHIGA ASOS BO‘LGAN BUYUK SARKARDA AMIR TEMUR SHAXSI XVI ASR TARIXCHILARI TALQINIDA

*Pulatova Mohichehra Temirovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Maqolada sohibqiron Amir Temur shaxsining XVI asr tarixchilari asarlarida berilishi tahlil qilingan. Amir Temur haqidagi qo‘lyozmalarda o‘z faoliyati bilan Sharqdagi ko‘pgina mamlakatlar va xalqlarning hayoti va taqdiriga bevosita ta‘sir qilgan, hattoki, G‘arbdagi davlatlarning manfaatlariga bevosita aloqador bo‘lgan ishlarni amalga oshirgan ulug‘ insonning shaxsi turibdi. Tabiiyki, Temur va temuriyzodalar hayoti va faoliyati haqida boy manbalar va adabiyotlar mavjud. Bu manba va adabiyotlar o‘rta asrning murakkab hamda ulug‘ siymosi bo‘lmish Temur haqidagi rang-barang qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Kalit so‘zlar: haykaltarosh, chet el adabiyoti, tarixchi, bunyodkorlik, ilmiy, tarixiy haqiqat

ЛИЧНОСТЬ ВЕЛИКОГО ПОЛКОВОДЦА АМИРА ТЕМУРА, ПОЛОЖЕННАЯ В ОСНОВУ НАПИСАНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ВЕЛИКИЙ ТЕМУР», В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИСТОРИКОВ XVI ВЕКА

Аннотация. В данной статье рассматривается отображение образа Амира Тимура в трудах историков XVI века. Тимур непосредственно влиял на жизнь и судьбу многих стран и народов Востока и даже совершал поступки, напрямую связанные с интересами стран Запада. Естественно, существуют богатые источники и литература о жизни и творчестве Тимура и Тимуридов. Эти источники и литература воплощают различные взгляды на Тимура, сложную и великую фигуру средневековья.

Ключевые слова: скульптор, зарубежная литература, историк, творчество, научный, историческая правда

THE PERSONALITY OF THE GREAT COMMANDER AMIR TEMUR AS THE BASIS FOR WRITING THE WORK "GREAT TEMUR", IN THE INTERPRETATION OF HISTORIANS OF THE XVI CENTURY

Annotation. The article illustrates the depiction of Amir Timur's image in the works of historians of XVIth century. Temur directly influenced the life and fate of many countries and people of the East, and even did things that were directly related to the interests of countries in the West. Naturally, there are rich sources and literature about the life and work of Timur and the Timurids. These sources and literature embody various views on Temur, a complex and great figure of the Middle Ages.

Key words: sculptor, foreign literature, historian, creativity, scientific, historical truth

Kirish. Insoniyat bosib o‘tgan yo‘lning tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning rivojida, xalqlar taqdirida buyuk shaxslarning xizmatlari beqiyosdir. Insoniyat taraqqiyotini batamom yangi yo‘nalishga solib yubora oladigan daholar tarixda nihoyatda kam uchraydi.

Shunday daholardan biri sohibqiron Amir Temurdir. Dunyoning uch azim qit‘asi Osiyo, Yevropa, Afrikada siyosat yurgizgan Amir Temur o‘z faoliyati bilan bir necha millatlarning hayotiga osoyishtalik, ilmu ma‘rifat, madaniyat, obodonchiliklar olib kirganliklari bilan qadrlidir.

Amir Temurning zimmasiga juda katta vazifalarni bajarish mas‘uliyati bilan birga muqaddas Vatanni ajnabiy bosqinchilardan ozod qilish mas‘uliyati ham tushgan edi. Amir Temur nafaqat buning uddasidan chiqdi, balkim mo‘g‘ul bosqinchilaridan asorat bo‘lib qolgan xarobalar o‘rnida obod va qudratli bir davlat barpo qildi va turon zaminida buyuk uyg‘onish Renessans davrini boshlab berdi.

Shu o‘rinda XIV – XV asrlarda Turonda Uyg‘onish Renessansining boshlanishiga qanday omillar sababchi bo‘ldi, degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Temuriylar davrida Renessans jarayonining yuz berishiga asosiy sabab, bu davrda insonning har tomonlama rivojlanishiga va har bir kishiga o‘z qobiliyatini amalda ko‘rsatishga shart-sharoitlar yaratilganidir.

Asosiy qism. Temuriy hukmdorlar, nafaqat tirik insonlarga, balki o'tmishda yashab o'tgan allomalar va aziz avliyolar xotiralarini abadiylashtirishga g'amxo'rlik qildilarki, bu hol fuqarolar ongida ezgu xizmat qilganlar hech qachon unutilmas ekan degan tushunchani paydo qildi. Temuriylar davrida mamlakatlarda shaharsozlik, me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, zardo'zlik, metallga badiiy ishlov berish, hattotlik, ilm-fan, adabiyot, musiqa kabi sohalarining o'ta rivojlanganligining guvohi bo'lamiz. Temuriylar Turonda yaratgan Renessans XV asrdayoq Xuroson va Hindiston, Yevropa mamlakatlarida ham o'z shu'lasini socha boshladi.

Doimo ilm-fan, san'at va madaniyatga chanqoq Yevropa xalqlari temuriylar Renessansini bundan 600 yillar ilgari qabul qilib, tahlil qila boshlaganligining guvohi bo'lamiz. 1403-yili Samarqandga tashrif buyurgan ispan elchisi Klavixo va uning sheriklari bu yerda bo'lganlarida Movarounnahrda yuksak san'at va madaniyatni, muhtasham va naqshinkor binolarni hayrat bilan tomosha qiladilar. Ayniqsa, Amir Temurning turk sultoni Yildirim Boyazid ustidan 1402-yili qilgan g'alabasi Yevropa mamlakatlarida kuchli aks-sado berdi. Yevropa qirollari birin-ketin Samarqandga o'z elchilarini va maktublarini yuborib turdilar.

Yevropaning yetuk olimlari, yozuvchi-allomalari ham Amir Temur shaxsiyatiga, hukmdorlik faoliyatiga katta qiziqish bilan qaray boshladilar. yevropalik tarixchilar Perrodina, De Sankso, Desa Krua, De Margaf, Nev, J.Kalyu, E.Gomlios, I.Lengle, N.Vamberri kabilar temuriylar davriga oid noyob qo'lyozmalarni o'rganib, o'z tillariga tarjima qilganlar. Bu asarlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, yevropalik tarixchilar va ijodkorlar Amir Temur shaxsiyatidan, daholigidan qattiq ta'sirlanganlar. Uning yaratgan tartib – qoidalari va qonunlari o'ta adolatli, progressiv ekanligini aniqlaganlar. Shuningdek, Amir Temur dahosiga qiziqish yevropalik ijodkorlar, olimlar, shoirlar va haykaltaroshlar orasida ham kuchayib ketdi. Parijda ham Temurning sof oltindan haykali yaratildi. Italiyalik yozuvchi Bertrano Mignanelli Amir Temur haqida kitob yozdi. Shuningdek, italiyalik yozuvchi Franchesko Brachcholi va fransuz mutaffakiri Jak Bodenlar ham o'z asarida Amir Temur siymosiga va qobilyatiga katta baho berganlar.

G'arb ijodkorlari orasida, ayniqsa, mashhur ingliz shoiri, qirolicha Yelizavetaning dramaturgi Kristofer Marloning alohida o'rni bor. Uning sohibqironga bag'ishlangan tragediyasi bir necha asrlardan beri sahnadan tushgani yo'q. Kristofer Marlo Amir Temur hayoti talqin etilgan ushbu asarni 1590-yili nashr ettirgan. Mashhur ingliz shoiri Amir Temurni zo'r jismoniy kuchga ega bo'lgan, yengilmas irodali, jangchilarning yo'lbo'shchisi sifatida tasvirlaydi. Marloning bu asari Rossiyada ham bir necha bor sahnaga qo'yilganligi diqqatga sazovordir. Mashhur ingliz tarixchisi Eduard Gibbon va nemis tarixchisi Fridrix Shlosserlar ham o'z asarlarida bir necha bor Amir Temur siymosiga, uning arbobblik va sarkardalik faoliyatiga yuksak baho berganlar.

Ayniqsa, fransuz tarixchisi L.Langlening Amir Temur shaxsiyatiga bergan bahosi diqqatga sazovordir. U o'z asarida: "Amir Temur olimlarga xayrixoh munosabatda bo'lar va bilim bilan birga haloliligini ko'rgan olimlarga ishonar edi. U tarixchi va faylasuflar, ilm-fan va ma'muriy sohada bilimdon bo'lgan kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan ham tushar edi. Amir Temur o'zidagi kishilarni bo'ysundirish qobilyatiga o'z hukmronligi ostida bo'lganlarni baxtiyor qilish iste'dodini ham qo'shgan edi", – deb yozgandi.

Amir Temur haqidagi qo'lyozmalarda o'z faoliyati bilan Sharqdagi ko'pgina mamlakatlar va xalqlarning hayoti va taqdiriga bevosita ta'sir qilgan, hattoki, G'arbdagi davlatlarning manfaatlariga bevosita aloqador bo'lgan ishlarni amalga oshirgan ulug' insonning shaxsi turibdi. Tabiiyki, Temur va temuriyzodalar hayoti va faoliyati haqida boy manbalar va adabiyotlar mavjud. Bular Temur davridan boshlab, bir necha asrlar mobaynida yaratilgan. Bu manba va adabiyotlar o'rta asrning murakkab hamda ulug' siymosi bo'lish Temur haqida rang – barang qarashlarni o'ziga mujassamlashtirgan. Shu narsani ta'kidlash lozimki, keyingi o'n yilliklarda G'arbda Temur haqida bir necha to'plamlar, kitoblarning paydo bo'lishi uning shaxsi va davriga bo'lgan qiziqish susaymaganligi e'tiborni o'ziga tortayotganligining dalilidir. Javoharlal Neruning Temur haqidagi so'zlarini misol tariqasida olishimiz mumkin: "Hozir ham Markaziy Osiyoda to'rt jahongir: Iskandar, Sulton Mahmud, Chingizxon va Temurning nomlarini eslaydilar: Neru Temurda Chingizxon jasoratini ko'tarmoqchi bo'lgan shaxsni ko'radi, shuning uchun u o'zini "Ona tarafdin Chingizxon avlodiman deb bejiz aytmagan", - deydi [7.243].

Amir Temur davri tarixiga ham chet el adabiyotlarida ham keng e'tibor berilgan. Bu borada eng avvalo mashhur ingliz tarixchisi, qudratli Rim imperiyasi inqirozi hamda parchalanishiga oid hamma tomondan tan olingan ma'lum asarlarning muallifi Edvar Gibbon (1737 - 1794) nashrlariga murojaat qilamiz. Bu nashrlarda muallif G'arbiy Yevropa va Sharqdagi o'rta asrlar tarixiga to'xtalganda, Temur shaxsini ham chetlab o'tmaydi. "Butun dunyoni istilo qilib, unga hukmronlik qilish shuhratparast Temurning bosh maqsadi edi". Avlodlar hurmatiga ega bo'lish, ularning yodida qolish, bu oliyanob zotning ikkinchi istagi edi. Ammo o'limdan so'ngi shon-shuhrat borasidagi xayollari samarasiz bo'lib chiqdi. "Uning

vasiyatlari Yevropaga nomalumlighicha qolaverdi, u tomonidan mag'lub qilingan xalqlar o'zlarining xo'rlanganliklari uchun qasd olish payiga tushdilar. Gibbon Temurning oddiy fuqarodan Osiyo hukmdori darajasiga ko'tarilishini alohida ta'kidladi.

G'arbiy Yevropa adabiyotlariga kelsak, ularning orasida o'zining ilmiy va ma'rifiy ahamiyati jihatidan hozirgacha yagona o'ziga xos manba 1403-yili Temur poytaxti Samarqandga yuborilgan ispan elchisi Rui Gonzalez de Klavixoning xotira daftaridir. Mazkur kundalik daftar birinchi marta 1582 -yili Sevilya shaxrida "Ulug' Temurlang tarixi" nomi bilan, so'ngra 1782 - yili Madridda "Ulug' Temurlangning hayoti va faoliyati" nomida nashr qilingan. Bu asar keyinchalik to'liq, va ayrim parchalarda bosilgan, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan. "Kundalik daftar" matnining rus tiliga birinchi tarjimasi akademik I.I.Sreznevskiy tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu matni sharhlashda ko'zga ko'ringan sharqshunoslar V.V. Grigoryev, P.I. Lerx, K.P. Patkanovlar qatnashgan. Tarjima 1881-yili Sreznevskiy vafotidan keyin nashr qilindi.

Shuni aytib o'tish joizki, tarixda Temurga salbiy munosabatda bo'lganlar ham yo'q bo'lmagan. Bular orasida misrlik tarixchi Ibn Tag'riberdi (1411-1465) ajralib turadi. U Temurning Turkiya, Misr, Suriyaga nisbatan olib borgan siyosati va urushlari haqida yozib, ularni qoralagan. XV asr arman tarixchisi Metopetsi Tavma ham Temurning o'zi va Sharqqa qilgan yurishlari haqida g'azab va g'araz bilan hikoya qiladi.

Yakubovskiyning qat'iy xulosasi quyidagicha edi: "Temur – chuqur ziddiyatlarga ega bo'lgan arbobdir. O'rta Osiyodagi faoliyatining ijobiy tomonlari ko'p edi. Lekin "baribir u jahon tarixiga shavqatsiz istilochilardan biri sifatida abadul-abad kirdi". Lekin I.M.Mo'minovning yozishicha, Temur–farosatli, ziyarak siyosatchi, "o'ziga xos vatanparvarlikni" tarqatuvchi, mamlakatning obro'-e'tibor, inson sharafi va manfaatlarining himoyachisi, madaniyatning quruvchisi va qadriga yetuvchi, O'rta Osiyoning iqtisodiy va madaniy yuksalishini ta'minlagan Shimoliy Afrika xalqlarini turk zulmidan qutqazgan shaxs".

Musulmon olimlari asarlarida Amir Temurning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil obrazi mavjud. Birinchisi – go'yo Amir Temur atrofdagilarga qo'rquv va dahshat soladigan berahm, qattiqqo'l hukmdor va sarkarda. U o'z maqsadiga erishishda har qanday imkoniyatni, bu unga qancha qimmatga tushsa ham, qo'ldan boy bermaydi. O'z qo'li ostidagilar hayotini yangilash, mazmunli va qiziqarli qilish haqida tashvish chekmaydi, zero, uning tasavvurida hayot bu omad, mehnat va doimiy kurashdir.

Ikkinchi tomondan, aql-farosatli, adolatli hukmdor. U yomonlik va axloqsizlikni ko'rishga ko'zi yo'q. cheksiz harbiy talant sohibidir.

Birinchi obraz ko'proq arab va fors tillaridagi manbalarda keng tarqalgan [1.91].

Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan yuksak madaniyatni xalqaro YUNESKO tashkiloti ham ikki marta e'tirof etganligi – Temuriylar Renessansini xalqaro miqyosda tan olinganligini yaqqol isbotlab turibdi. 1969-yili Samarqandda Yunesko Temuriylar davri san'atini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpoziumni o'tkazgan edi. 1996-yilda esa YUNESKO Amir Temurning 660-yilligi bilan Parijda "Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning ravnaqi" mavzusida xalqaro simpozium o'tkazdi. Ushbu marosim ochilishiga YUNESKOning sobiq bosh direktori Federiko Mayorning: "Amir Temurning Samarqanddagi saroyida bo'lgan Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixoning esdaliklarini o'qir ekanman, Markaziy Osiyo mazkur qismining XVI asr madaniyatini – me'morchilik boyliklarini, she'riyat nafosatini, texnik va ilmiy topqirligini, ushbu madaniyatga afsonaviy jahongir Amir Temurning ta'siri va daholigini kashf etdim" [5.9], - degan so'zlari diqqatga sazovordir.

Jahonga mashhur sarkarda, buyuk davlat arbobi sohibqiron Amir Temur 1336- yil 9- aprelda (736- yil 25 -sha'bon) Shaxrisabz (Kesh) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga keldi. Uning dunyoga kelishi Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanish jarayonining boshlanishiga turtki bo'ldi. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay barlos qabilasiga mansub bo'lgan mulkdor beklardan edi. Onasi esa Buxoro fuzalolarning eng ulug'i –sadr un – shar'ianing (shariat qonunlarini sharxlovchi) qizi Tegin Moh begim edi. Amir Tarag'ayning to'rt o'g'li va ikki qizi bo'lib, katta o'g'li Temur, ikkinchisi Suyurg'atmish, uchinchisi Olamshayx, to'rtinchisi Jo'ki No'yon, qizlarining kattasi Qutlug' Turkon Og'o va kichigi Sherbiyk (Shirinbeka) Og'o edi.

Amir Tarag'ay avvalo komil musulmon va bahodir jangchi edi. Shuningdek, ulamoyu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lib o'z zamonasining mulkdor kishilaridan edi. U Chig'atoy ulusiga mansub hukmdorlar bilan yaqin munosabatda edi. Amir Tarag'ay o'z zamonasining an'alariga ko'ra, yosh Temurga ot minish, ov qilish, xat-savod chiqarish hamda islom ahkomlarini o'rgatuvchi murabbiylar tayinlaydi. Shuning natijasi o'laroq, Temurni yeti yoshidayoq madrasaga o'qishga beradilar. U o'z ona tilidan tashqari fors tilini ham bilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Amir Temur o'z zamonasining o'qimishli va uquvli hukmdorlaridan bo'lgan ekan. Darhaqiqat, Amir Temur mamlakatni rivojlantirishda ilm-fanning ahamiyati beqiyos ekanini yaxshi tushungan olimu hunarmandlarga ehtirom bilan qaragan. Zotan uning o'zi ham tibbiyot, matematika, falakiyot, tarix hamda me'morchilik ilmidan

yaxshigina xabardor bo'lgan. Bundan tashqari u mohir yulduzshunos (axtarshunos) ham bo'lgan. Darvoqe, Amir Temur bilan yuzma-yuz o'tirib suhbatlashish sharafiga musharraf bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xoldunning ta'kidlashicha, Amir Temur turk, arab, fors xalqlari tarixini chuqur o'rgangan, diniy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarigacha yaxshi o'zlashtira olgan zot ekan.

Temur 16-18 yoshida qilichbozlik, nayzabozlik san'atini mohirona egallaydi va 20 yoshida esa abjir chavandoz bo'lib yetishadi. Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytida Movarounnahr mo'g'ullar istibdodi ostida edi. Amir Temur o'zi asos solgan saltanatining muhofazasi uchun qo'shni mamlakatlar bilan jang olib bordi. Amir Temur 1370-yildan 1404-yilgacha Xuroson, Eron, Iroq, Ozarbayjon, Gurjiston, Armaniston, Hindiston, Oltin O'rda va Turkiya bilan jang qilib, saltanat hududini Sharqda Xitoy devoriga qadar, shimolda Yeletsqa, g'arbda O'rta yer dengiziga, janubda esa Misr chegaralariga qadar kengaytirdi.

Insoniyat tarixida bo'lib o'tgan urushlar sababi tub mohiyatini ilmiy asosda tahlil qilinsa, barcha chigalliklar birin – ketin yechila boradi. Binobarin, Amir Temur yashagan davr, tarixiy sharoit o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U davrda shunday qonuniyat ustuvor ediki, yo sen dushmaningni mag'lub etib, saltanating qudratini oshirasan yoki g'animlaring seni majaqlab, davlatingni bosib oladilar. Tabiiyki, Amir Temur ham o'sha davr farzandi, o'shanday ijtimoiy hayot vakili, aniqrog'i o'sha zamon hukmdorlaridan biri edi.

Amir Temurning To'xtamishxon yoki turk sultoni Boyazid Yildirim bilan munosabati va unga qarshi harbiy yurishlari yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. 1376-yili Mang'ishloq hokimi To'yxo'ja O'g'lon Oq O'rda hukmdori O'rusxon tomonidan qatl qilingach To'yxo'ja O'g'lonning yosh o'g'li To'xtamishxon O'rusxondan qochib Amir Temur huzuriga siyosiy boshpana istab keladi. Amir Temur bu masalani mohiyatini atroflicha o'rganib, Oq O'rdada o'z odami bo'lishini nazarda tutib, To'xtamishxonga harbiy yordam ko'rsatadi. Ammo To'xtamishxon Oq O'rda xoni bo'lib olgach, ayniqsa, keying paytlarda Oltin O'rda hukmdori bo'lgach, valine'mati Amir Temurning umidlarini puchga chiqaradi. Chunonchi Movarounnahr hududiga bostirib kirib shahar va qishloqlarni talaydi. U Amir Temurga qarshi bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirib, Temur davlatini yakson qilishga harakat qiladi.

Biroq, Amir Temurning 1392 va 1395-yillarda To'xtamishxonga bergan qaqshatgich zarbasi uni siyosat maydonidan tushib ketishga majbur qiladi. O'sha davr qonuniyati shuni taqozo qilardi. 1402-yilda Amir Temur Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (Yashin) bilan jang qiladi. Aslida Boyazidning jizakiligidan Amir Temur o'zining "Tuzuklar"ida Boyazid Yeldirim bilan bo'lgan jangning kelib chiqish sabablari va tafsilotini quyidagicha izohlaydi. "Mening shon-shavkat va qudratim ovozi Rum qaysarining (kayzer) qulog'iga yetdi. U o'ziga qarashli Sivos va Malatiya qal'alari va ularga tobe' yerlarini zabt etganim xabarini eshitgach, tomirlaridagi g'ayrat harakatga keldi va askarim zarbasidan qochib qaysar qoshida panoh topgan qaroqchi Qaro Yusuf turkmanning ig'vosi bilan ustimga Lashkar tortishga qaror qildi. Qaysar baloga giriftor bo'lib, davlati vayron bo'lishi yaqinlashib qolgan edi. Chunki u Qaro Yusuf ig'vosiga uchib, menga qarshi Lashkar tortgan edi. Qolaversa, Misr va Shom askarlarini ham yordamga chaqirgandi.

"Biroq jangda yengish-yengilmish ishi taqdir pardasi ostida yashirin bo'lganligi sababli bu to'g'rida amirlarim bilan kengashdim. Ular sipohiylarga xos ishni tutib, urush, ochmoqni maslahat berdilar. Shunday bo'lsa ham qaysarning g'ayrat o'tini achchiq-chuchuk gap bilan so'ndirmoqni maslahat ko'rdim va qaysarga maktub yo'lladim." Maktubning qisqacha mazmuni shunday edi: "Yeru ko'kni Yaratgan Tangri taolaga cheksiz shukrlar bo'lsinki, yetti iqlim mamlakatlarining ko'pini mening farmonimga kiritdi va olam sultonlari va hokimlari menga egilib, itoat xalqasini jon quloqlariga taqdilar. O'z qadrini bilib xaddan oshmay jasorat oyoqlarini tiygan bandasini Tangri yorlaqasin. Sening nasl-nasabing kim ekanligi jahon xalqi oldida ma'lumdir. Shunday ekan, xolingga munosib ish tutib, jur'at oyog'ini oldinga qo'ymani, mehnat balchig'iga botib, balo chuquriga yiqilgaysan, ofat va balo eshigini davlating yuziga ocha ko'rma, mazkur maktub yetishi bilan Qaro Yusufni mening oldimga yuborgil. Aksincha, taqdir pardasi ikki Lashkar saflari to'qnashganda yuzingga ochilgusidir".

Amir Temurning Boyazidga yuborgan elchisi rad javobini olib keladi. Ibn Arabshohning ta'kidlashicha, Boyazid o'zining javob maktubida o'z huzuriga Amir Temurning bo'yin egib kelishini talab qilgan, aks holda Amir Temurning ayollari uch taloq (taloq bi-s-salosa) bo'lsin degan haqoratli so'zlarni yozgan. Tabiiyki, bunday qaltis javobdan so'ng Amir Temurning jangga kirmasligi mumkin emas edi. 1401-yil fevralida Amir Temur Ozarbayjondan Boyazid ustiga Lashkar tortib boradi. Nihoyat, 1402-yil 25-iyulda Anqara yaqinida bo'lgan jangda Boyazid qo'shini mag'lubiyatga uchrab, jangohda Movarounnahr xoni Sulton Mahmudxon tomonidan Boyazid va uning harami asirga olinadi. (Sulton Mahmudxon Amir Temur tomonidan tayinlangan xon.) Sulton Mahmudxon Boyazidni band etib, Amir Temur o'rdugohiga jo'natadi. Boyazidni xufton vaqtida Amir Temur huzuriga olib keladilar. Shu asnoda Amir Temurda shohona muruvvat

jo'sh urib, Boyazidni banddan xalos qilib, unga mehribonlik bilan izzat-ehtirom ko'rsatishlarini buyuradi. So'ngra Boyazidni o'z yoniga o'tqazib do'stona suhbatlashadi.

Sulton Boyazid jangda mag'lub bo'lib asirga olingach, Amir Temur tarafidan unga ko'rsatilgan munosabat haqida L.Lyangle shunday yozadi: "Temur kun bo'yi davom etgan jangdan charchab, to'shakda hordiq chiqarayotgan paytda, uning saroparzasiga qo'l-oyoqlari bog'langan Boyazidni olib kirishadi. Kutilmaganda Boyazidni ko'rib hayajonga tushgan g'olib Temur o'zini ko'z yoshidan tutib turolmaydi. Boyazidning istiqboliga peshvoz chiqib, uni banddan bo'shatishlarini buyuradi va qabulxonasiga olib kiradi".

Temur o'z mahbusini yoniga o'tqazib, "Baxtsizligingizni o'zingizdan ko'ring, bu o'zingiz ekan daraxtning mevasi. Men sizning oldingizga osongina shart qo'ygan edim. Sizning rad javobingiz meni sizga qarshi, o'zim hech ham xohlamagan harakatni qilishga majbur etdi. Men sizga zaxmat yetkazishni o'ylamagan edim. Aksincha sizning dushmandlaringizga qarshi urushishingizga yordam berishni niyat qilgan edim. O'jarligingiz hamma ishni barbod qildi. Hay, attang! Mabodo g'alaba siz tomonda bo'lganda edi, menga va qo'shinimga qanday muomala qilishingizni bilaman. Shunday esada, xotirjam bo'ling, ko'nglingizdan xavf – xatarni chiqarib tashlang, men hayotingizni saqlab qolish bilan o'z g'alabam uchun Allah taologa hamdu sanolar atamoqchiman" – deydi hamda o'z qarorgohi yonida Boyazidga maxsus chodir qurib berishlarini va unga shohona iltifot ko'rsatishlariga amr qiladi.

Manbalarning xabar berishlaricha, bu voqeaning asl tavsiloti quyidagicha bo'lgan. Jumladan Mirxond shunday yozadi: "Boyazid Yildirimni Amir Temur yoniga olib kelishgach, uni bandlikdan ozod qilish, o'z yoniga o'tqazib, bu mehnat – mashaqqat insof yuzasidan aytganda o'zingizning o'jarligingizdir. Siz o'z haddingizdan oshib, bir necha marta bizga qarshi nojo'ya harakatlar qildingiz. Musulmonchilik qoidalariga amal qilib, biz jang qilishdan o'zimizni tiyib keldik. Agar siz talab qilingan shartga o'z vaqtida rioya qilganingizda biz sizga lashkar, ganj – javohir bilan madad yetkurib, sizdan hech narsani ayamas edik. Allohga shukurlar bo'lsinkim, g'alaba biz tomondadir. Agar taqdir aksincha sodir bo'lganda edi, sizning qahr – g'azabingiz asaridan nimalar bo'lishini yaxshi bilaman. Ammo, ushbu nusrat zafarining shukronasi uchun siz avlodingiz hamda yaqin kishilaringiz haqida yaxshilikdan boshqa narsani andesha qilmog'imdur. Endi ko'nglingizni tinch tutib, hech vajxdan xavf – xatarga berilmay sokin bo'lishingiz mumkin" – dedi.

Ammo, Boyazid Yildirim xijolatdan boshini quyi etganicha o'tirib, o'z nuqson va kamchiliklarini bo'yniga olib, iqror bo'lib, sohibqironga qarab shunday dedi: "Rost aytursiz, men sizdek saodatmand kishining pand – nasihatini olmadim. Endi, farmoni xusravona men gunohkor bandaning yozuqiga avf raqamin cheksa, o'zim va farzandlarim to tirikdurimiz hamda xizmatkorlik lavozimini iqdomiga (oxiriga) yetkazurimiz." Sohibqiron Boyazidga xil'at sarupolar kiydirib, yaxshi va'dalar bilan ko'ngilni xushnud qildi.

Boyazid Amir Temurdan bunchalik lutf va ehtirom hamda marhamatni ko'rib, duo qilib dedikim: "Mening Muso va Mustafo nomli farzandlarim jang asnosida mening bilan birga edilar. To alhol ularning ahvoli nima kechdi xabarim yo'q. agar tirik bo'lsalar mening huzurimga keltirsalar." Boyazitning iltimosi maqul bo'lib, bir necha kundan keyin Musoni topib, sohibqiron huzuriga kiritdilar. Sohibqiron unga zarrin chopon kiydirib, otasining huzuriga yubordi. Sohibqironing farmoniga muvofiq, Boyazid Yeldirimning muhofazasi va xizmatiga Hasan barlos va Boyazid Chimboylar qiyom ko'rgazardilar. Amir Shayx Nuriddin Boyazidning qo'lga tushgan xotini, farzandlari, qizlari, kanizlari va yaqin kishilarini oliy o'rdugohga topshirdi. Farang hukmdori Losning qizi malika Bastaniya Boyazidning xotini edi.

Sohibqiron buyrug'iga ko'ra, malika Bastaniya va yaqin kishilari Boyazid huzuriga yuborildi. Sohibqironing roziligi bilan Boyazidning katta qizini Abubakr Mirzoga nikohlab berdilar. Sohibqiron Oltin tosh havohida bir bazm uyuhtirib, bazmga Boyazid Yildirimni ham taklif qildi. Boyazidning o'g'li tomonidan elchi kelib, uning arzini bayon qildi: "Mening otam Boyazid Yildirimga ko'rsatgan hurmat – ehtiromingizni hech qachon esdan chiqarmayman. Men ham oliy zotning bandalaringiz jumlasidandurman. Qachon va qayerga chaqirsangiz, hayallamay yetib borib siz oliy maqom amirning xizmatigingizga qiyom ko'rgazurman. Sohibqiron elchiga dedikim, Sulaymon Chalabiy bizning dargohimizga kelsin, hech qanday xavf – xatarning o'rni yo'q! Shundan so'ng sohibqiron Nasitin qal'asining zapti uchun mashg'ul bo'ldi. Bu paytda Oq shaharda Boyazid Yildirimning mijozida xastalik sodir bo'lib, nafas siqish kasali oshkor bo'ldi. Bu xabar Amir Temurga yetgach, darhol tabiblardan mavlono Mas'ud Sheroziy va mavlono Jaloliddin Arabni Boyazid huzuriga jo'natdi. Ammo tabiblarning muolajasi foyda bermadi. 1402-yilning oxirida Yildirim vafot etdi. Bu mash'um xabardan sohibqiron g'oyatda g'amgin bo'lib, Oq shaharga bordi va Boyazidning xotini, farzandlari va yaqin kishilariga xamdardlik bildirgach, Boyazidning o'g'li Muso Chalabiyga qimmat baho kiyimlar kiydirib, shamshir, yuz nafar chopqir ot – tamg'a bilan ziynatlangan yorlig' berib, buyurdikim: "Muso Chalabiy otasining oq shaharda Shayx Maxmud Jiyron qabristoniga muvaqqat dafn etilgan jasadini olib, Bursaga olib borib, o'zi ucyun qurdirgan maqbarasiga dafn qilsin!"

Muso Chalabiy otasi – Boyazid Yildirimning jasadini Oq shahardan Bursaga olib ketdi. Boyazid Yildirim voqeasi ana shunday yakun topdi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, Amir Temurning Boyazid Yildirimga qarshi olib borgan kurashi, o'z zamonasining taqozosiga ko'ra, adolanli jang bo'lgan. Mashhur olim A.Y. Yakubavskiy mazkur jangni sharhlarkan, Amir Temurning Evropa ko'rsatgan yana bir xizmati haqida shunday deydi: "1400-yilda Temur askarlari O'rta Osiyodan uzoqda – G'arbda turk sultoni Boyazid I va Misr sultoni Farajga qarshi kurash olib boradi. O'sha vaqtda Temur ko'p xalqlarni, masalan Kichik Osiyodagi Savasni, Suriyadagi Halab (Aleppo)ni o'ziga qaranib olgan edi. 1402- yilda Anqara yonida Temur ikkinchi marta Boyazid bilan jang qildi. Bu jang o'sha davrdagi eng katta janglardan biri bo'lgan edi. Har ikki tomondan 200 mingdan ortiq askar qatnashadi. Anqara yonida bo'lgan bu jangda Usmon sultoni Boyazid batamom tor – mor etiladi va Boyazidning o'zi asr olinadi. Bu g'alaba faqat Osiyo tarixi uchungina ahamiyatli bo'lib qolmadi. Temur o'zining bu g'alabasi bilan Yevropa xalqlariga ikkinchi marta xizmat etdi. Anqara yonidagi bu g'alaba va Boyazidning asir tushishi Konstantinopolning (Istanbul) turklar – Usmonlilar tomonidan bosib olinishini qariyb 50 yil orqaga surib yubordi.

Amir Temur avvalo qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror bo'lmasa, betakror ma'naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi.

O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Tarix bu ko'hna dunyodan o'tgan ko'p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Amir Temur o'z millati va el-yurtining taqdiri haqida ko'p o'ylagan. U qo'ygan har bir qadam nafaqat o'sha davr, balki kelajak uchun ham xizmat qilgan.

Amir Temur bir haqiqatni yaxshi anglagan: jamiyat e'tiqodsiz yashay olmaydi. Odamlarga din kerak, iymon kerak, ishonch kerak. Amir Temur tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxs, ulkan bunyodkor, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi. Biz bugun bu haqiqatni yaxshi angladik va bilamiz. G'arbda, masalan, Italiyada, Ispaniyada, Fransiyada, Angliyada, Germaniyada bu haqiqat XVI-XVII asrlardan beri ma'lum. Amir Temur haqidagi birinchi kitob 1553-yili Florensiyada (Italiya) chiqqan. Italiyalik olim Perondini qalamiga mansub. Shu asarda ispan tarixchisi Pero Meksikaning Buyuk Temur tarixi" degan asari ham chop etildi. 1582-yil Sevilyada mashhur Ispaniya elchisi Klavixonning "Esdaliklar"i nashrdan chiqdi. Ingliz dramaturgi Kristofer Marloning "Buyuk Temurlang" nomli sahna asari ham shu asrda yaratildi. Shundan beri buyuk sohibqironga atalgan asarlarning keti uzilmaydi. Nafaqat Yevropa mamlakatlarida, balki butun dunyoda chop etilmoqda. Ular lotin, italyan, ispan, fransuz, nemis va ingliz tillarida yozilgan [3.417].

"Amir Temurning 1402-yilda Anqara yonida erishgan g'alabasi nafaqat Osiyo tarixidagina ulkan ahamiyatga ega, balki Amir Temur beixtiyor ikkinchi marta Yevropa xalqlariga xolis xizmat ko'rsatdi". – deydi A.Y. Yakubovskiy. 1402-yil voqealaridan so'ng, ya'ni jahonga, ayniqsa Bolqon Yarim oroli hamda Yevropadagi halqlar va mamlakatlarga tahdid slogan Turkiya sultoni Boyazid I Yildirim tor-mor keltirilgandan keyin, fransuzlar Amir Temurning oltindan qo'yilgan haykalchasini qo'ydirib, ostiga "Yevropa haloskoriga" deb yozdirib qo'yishgan ekan. Bugun bu ulug' zotni buyuk bunyodkor, ulug' davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida butun dunyo tanidi, tan oldi.

Sohibqironning jahonshumul ulkan ishlari, nafaqat Sharq, balki Ga'rb mutafakkirlarini, kompozitorlarini ham befarq qoldirmadi. Dastlab bobokalonimiz ulug' Sohibqiron obraziga italiyaliklar va nemis kompozitorlari murojaat qildilar. Aleksandr Skarlatti (1660-1725) 125 dan ortiq operalari orasida opera-seria janridagi ilk bor 1706-yili Rimda qo'yilgan va muallif tomonidan "Buyuk Temurlango" deb nomlangan asar diqqatimizni tortdi. Shunisi muhimki, Skarlatti Amir Temur qiyofasidagi o'z ijodining cho'qqisiga, necha o'nlab opera partituralari yaratgan bir paytida murojaat qiladi. 1702-1708 yillarda Rimda yashab, Santa Mariya Majore cherkovida kapelmeyster yordamchisi sifatida ishlagan mashhur kompozitor faqat operalar emas, kantatalar, oratoriya va boshqa asarlar ham yozgan edi. "Buyuk Temurlango" operasining premerasi shaharlar onasi Rimda o'tganini o'ziyoq ko'p narsadan dalolat beradi. Zero, A. Skarlatti yetakchiligidagi Neopolitaniya opera maktabi ma'lum ma'noda Rim opera maktabining muqobili edi.

Temur timsoli aks etgan navbatdagi opera asari, endi opera-buff janrida, Neopolitaniyani opera maktabining boshqa vakili Leonardo Leo (1694-1744) ijodiga mansub bo'lib, "Boyazid-Turkiya imperatori" (premyerasi 1722 -yili Neapolda o'tadi) deb nomlangan. Kompozitor faqat bosh qarhamonni emas, balki boshqa personajlarni jumladan, Temurni ham tipik buffonada shaklida talqin qiladi. Biz ko'rib chiqishga

muvaffaq bo'lgan adabiyotlar shundan dalolat beradiki, bu opera L.Leo ijodining muhim yutuqlaridan biri bo'lgan.

Alessandro Skarlattidan keyin Amir Temurni bosh qahramon darajasiga ko'tarib olib chiqqan mashhur kompozitorlardan biri Nikollo Porporadir (1680-1768). Uning "Tamerlano" operasi birinchi marta 1730 yili Turinda qo'yildi. Bu asar mantiqan Porporaning sharqona g'royib, opera serallari qatoriga kiradi. Shundan so'ng Veronada 1735 yilda A.Vivaldining "Temur" deb nomlangan asari dunyoga keldi.

XVI asr arafasida yana ikki italiyalik – Antonio Sakkini (1730-1786) va kichik Antonio Sapiyentsa (1794-1855) xuddi shunday Temur nomi bilan operalar yaratdilar. Bu har ikki asar birinchi marta Italiyada emas, undan ancha uzoqda qo'yildi. Sakkini o'z operasini Buyuk Britaniya ishlayotgan vaqtida 1773 yili Londonda, Sapiyentsa esa Rossiyada graf D. Shermetev kapellasida rahbar bo'lib ishlayotgan vaqtida 1828 yili Peterburgda qo'yadi.

Bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan kuzatishlarni jamlab quyidagi xulosaga kelish mumkin. Temur obraziga murojaat qilgan boshqa mamkallatlardan (Fransiya, Germaniya) farqli o'laroq, Italiyada bu jarayon izchil tus olgan. Bu Temur obrazini yaratish bilan bog'liq ijodiy jarayonning bir yarim asr davomida kata an'anaga aylanganidan darak beradi.

Nemis musiqa madaniyatida opera janrida Amir Temur obrazini mujassam etishda bizga ma'lum bo'lgan yagona opera "Tamerlano" bo'lib uning partiturasini Georg Gendel yozgan.

Gendelning "Tamerlano" asari uning 1724-yil 20-fevralda qo'yilgan mashhur "Yuliy Sezar" asari bilan tengdosh. Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra "Tamerlano" operasi xuddi shu yilning 31-oktyabrda yozib tuggalangan, lekin sahnaga qo'yilishi biroz cho'zilgan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, tarixiy haqiqat tiklanib, Temur hamda temuriylar shuhrati nafaqat O'zbekistonda balki butun jahonda tantana qilib, tom ma'noda ikkinchi umrini boshladi. Muhimi, Italiya, Fransiya va boshqa davlatlarda Sohibqiron siymosi o'rinli baholandi va abadiylashtirildi.

Sohibqiron haqida asar yaratgan tarixchilardan yana biri Ibn Arabshoh bo'lib, Kristofer Marlo "Buyuk Temurlang" asarini yaratishda aynan ushbu tarixchimizning asarlaridan manba sifatida foydalanganliklari ma'lum [6.38].

Ibn Arabshoh Shihobuddin Ahmad Ibn Muhammad Ibn Abdullox Ibn Ibrohim (1388, Damashq – 1450, Qohira) sermahsul tarixnavis va adib, shu bilan birga, muallifning Temur va temuriylar davri hayotiga bag'ishlanib yozilgan «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» nomli tarixiy asari uning muhim ta'lifi hisoblanadi. «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur»ning K.Marks nazariga tushishi ham mazkur asarning qimmatli manba ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur asar Amir Temurga va uning zamoniga bag'ishlangan salmoqli asardir. Ibn Arabshoh Amir Temurga nisbatan dushmanlik ruhida mualliflar jumlasidan edi. Bu hol uning asarida to'la aks etdi. Shunday bo'lishi tabiiy edi, chunki jahon tarixidagi eng yirik arboblardan hech biri va hech qachon adabiyotda bir xil, bir ma'noda baholangan emas. Ularning hayoti va faoliyati to'g'risidagi bilimlar jamlanishi jarayonida ularning tarafdorlari bilan g'animlari o'rtasida, tabiiy, bahslar bo'lib turgan, ijobiy va salbiy yoki betaraf tarzda va shu kabi turli-tuman fikrlar aytib kelingan.

Ibn Arabshoh o'zining "Al-Ta'lif at tohir fi shiyam al-malik az-Zohir al-qoim bi-nusrat al-haq Abu Sayyid Chaqmoq" asariga yozgan so'z boshisida Temur ishlari xususida «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» («Temur haqidagi xabarlar taqdir ajoyibotlari») deb atalgan ilgari kitobidagi yomonliklar bayonida bulg'angan qalamini tozalash uchun ushbu kitobni yozganligi haqida gapiradi.

Ingliz sharqshunosi X.A.Gibbning (1895-yilda tug'ilgan) "Temur haqida yozilgan «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» nomli asari Ibn Arabshoh nomini uzoq vaqt Yevropada doston qildi", degan ta'biri ham o'sha davrda asarga bo'lgan qiziqish kata ekanligidan dalildir. Muallif o'z asarini "Ajoyib al-makdur fi navoib Taymur" ("Temur keltirgan musibatlar taqdir ajoyibotlari") nomi bilan atalgan bo'lsa-da, ushbu asar keyingi barcha nashrlarida, biografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomuslarning ko'pchiligida «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» («Temur haqidagi xabarlar taqdir ajoyibotlari») nomi bilan zikr qilinadi. O'z asarida qofiyaga qat'iy rioya qilgan Ibn Arabshoh sarlavhadagi "navoib" ("musibatlar") o'rniga oddiy qilib "axbor" ("xabarlar")ni qo'yanlar. Hozirgi vaqtda Damashqdagi (Suriya) Az-Zohiriya kutubxonasida saqlanayotgan qadimiy nusxalaridan biri "Ajoyib al-makdur fi navoib Taymur" («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari») nomi bilan keltirilgan. Asarning boshqa tillarga (fransuz, lotin, ingliz) qilingan tarjimalarida ham Ibn Arabshoh asari "Temur tarixi" nomi bilan atalgan.

Ibn Arabshohning manbalariga kelsak, muallif o'z kitobining muqaddimasida "o'zim ko'rib mushohada etganlarimu, o'zgalardan eshitganlarimni hikoyat qilishga jazm etdim" [2.3] deb o'zi foydalangan manbalari haqida hech narsa yozmaydi. A.Yu.Yakubovskiy fikricha ham, mazkur asar uchun asosiy manba muallifning shaxsiy kuzatishlari va o'sha davr voqealariga aloqador bo'lgan va ishtirok etgan

shaxslarning hikoyatlari hisoblanadi [5.46]. Garchi shu tarzda mulohazalar yuritilsa ham, muallif boshqa manbalardan ma'lum darajada istifoda etganligiga ba'zi dalillar mavjud. Umuman, «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur»ni yozishda muallif tayangan manbalarni to'rt qismga bo'lish mumkin: o'sha davr (ya'ni XIV-XV asrlar)da yaratilgan arab va fors tilidagi ba'zi asarlar: Temur haqida xalq orasida tarqalgan rivoyat-u hikoyatlar: muallif zamondoshlarining hikoyatlar: muallif zamondoshlarining hikoyalari va nihoyat, muallifning shaxsiy mulohazalari. «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» («Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari») asari Amir Temur vafotidan keyin sodir bo'lgan hodisalar va ishlar bayoni bilan boshlanadi:

Temur yerlari to'belarini tashlab, o'z gunohlari bilan darak-molikga (do'zaxga) tomon yuzlangani xabarini yetkazdi. Chopar ushbu xushxabar bilan mazkur yil ramazon oyining o'n to'rtinchisida...[2.5].

Ushbu misralarda Ibn Arabshoh Amir Temurning o'limidan so'ng uning do'zaxga tomon yuzlashganligini va bunday xushxabarni ramazon oyida aylayotganini yozadi. Bundan yozuvchining bosh qahramonga nisbatan salbiy munosabatini tushunish mumkin. Deyarli yarim asrluk davr voqealarini o'z ichiga olgan «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» ko'p sonli bayonlardan iborat bo'lib, voqealar jarayoniga binoan muallif ularni tadrijiy ravishda keltirishga harakat qilgan. Mana shu zikrlarning joylashuvi hamda asarning kompozitsiyasiga asoslanib, bizningcha, uni to'rt bo'limga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bo'limda Temurning nasabi, bolalik va o'spirinlik yillari dastlabki faoliyatiga oid ma'lumotlar keltiradi. Ikkinchi bo'limda Temur Movarounnahrda hokimyatni mustaqil egallagandan (1370 yil) boshlab deyarli umrining oxirigacha olib borgan harbiy yurishlari so'zlanadi. Temur vafotidan (1405 yil) keyin taxminan 1436- yilgacha bo'lgan voqealar uchinchi bo'limda bayon qilinadi.

Oxirgi to'rtinchi bo'limda esa, Temurning sifatlari, shakl-shamoyillari hamda tabiiy xislatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, asarda bosh qahramon sifatlari hamda ko'rinishi quyidachida ta'riflanadi: "Temur baland qadli, uzun bo'yli, tik qomatli, go'yo u qadimiy paxlavonlar avlodlaridan bo'lib, keng peshonali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bo'lalik, rangi oqu-qizil yuzli, lekin dog'siz, bug'doy rang emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersoqol, o'ng oyoq-qo'li cho'loq va shol, ikki ko'zi bamisoli ikki sham bo'lsada, shodligi bilinmas, yo'g'on ovoqli edi; u o'limdan qo'rqmas, yoshi saksonga yetadigan bo'lsada, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazah va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgiyu ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi; u bo'lib o'tgan ishga aziyat chekmas va o'ziga hosil bo'ladigan yutuqlardan shodlanmas edi" [2.8].

Ko'pgina tadqiqotchilar XIV-XV asr O'rta Osiyo, shuningdek, Eron, Ozarbayjon tarixini to'liq tasavvur qilish uchun o'sha davrdagi boshqa tarixchilar yaratgan asarlarni «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» bilan qiyosiy o'rganish zarurligini haqqoniy ravishda ta'kidlaganlar. Darhaqiqat, bu bo'lib o'tgan voqealarning qanchalik to'g'riligini aniqlashda yordam beradi. Shu nuqtai nazardan Temurning bolalik va o'spirinlik yillari haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Boshqa birorta manbada ko'rsatilmasda [4.39], Ibn Arabshoh Temurning Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilganini zikr qiladi. So'ngra muallif Temur va uning otasi Tarag'ay hayotidan birtalay rivoyatlar keltiradi hamda keyinchalik Temurning o'z atrofiga tengqurlarini to'plab o'lja tushirish bilan shug'ullangani haqidagi ma'lumotlarni keltiradiki, bu xabarlarni u Movarounnahrda paytida eshitgan bo'lsa kerak[5.53]. Chunki bir tomondan Temur hayotini maqto'vlar bilan bayon qilgan rasmiy tarixchilarni uning yoshlik va o'spirinlik yillari haqida hech narsa yozmasdan chetlab o'tishlari, ikkinchi tomondan esa, Ibn Arabshohga aloqador bo'lmagan Kastiliya elchisi Klavixoning ham shu yo'sinda yozishi, shuningdek, rus solnomasida ham aynan shu tarzda xabarlar keltirilishi bu fikr ma'lum darajada haqiqatga yaqin bo'lib, o'sha paytda bu hikoyalar xalq orasida keng tarqalganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, Ibn Arabshoh yozganidek, "bir qarashdanoq tashqi xususiyatiga qarab otlarning zotli yoki zotsizligini ajratadigan" Temur yoshligidan epchil chavandoz hisoblanib, kamondan yaxshi otgan. U harbiy ishni puxta egallab asta-sekin o'z atrofida to'plangan uncha ko'p bo'lmagan otliq askarlarni o'z qo'shinlarining yerlarida o'lja tushirish va o'tib borgan savdogarlar karvonlarining yo'lini to'sib, mol-mulkini tortib olish uchun yuborgan.

Shaxsiy botirlik hamda boshliqqa xos xislatlari bilan Temur yoshligiga qaramasdan o'z qabilasi barloslar, ayniqsa, chig'atoy ko'chmanchi yoshlari orasida shuhrat qozona boshladi. Ibn Arabshoh, uning hamrohlari soni tobora oshaborib, qisqa vaqtda uch yuz kishiga yetganligini zikr qiladi. Shundan keyin sodir bo'lgan voqealar xususida «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur»da keltirilgan ma'lumotlar garchi forscha manbalarda tasvirlaganidek mukammal va tarixlari ko'rsatilib aniq bayon etilmasda, hokimyat yo'lida Temur bilan uning raqiblari o'rtasida yuz bergan kurashlarni qisman aks ettiradi. Jumladan, «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» asarida aytilishicha, Temur sharq-u g'arb iqlimlarini alg'ov dalg'ovga soldi,

uning jangu jadalida har bir sulton yutqazib, har bir shoh jangda ham, shaxmat o'yinda ham undan yengilib mot bo'ldi.

Bir tomondan mo'g'ul xonlari o'tkazayotgan zug'umlar, ikkinchi tomondan mahalliy hokimlar o'rtasidagi to'xtovsiz nizolar mamlakatni mushkul ahvolga tushurib, faqat oddiy xalq ommasini ahvolini og'irlashtirib qolmay, balki hokim sinflarning manfaatlariga ham putur yetkazardi. Mana shunday og'ir vaziyatda siyosat maydoniga chiqqan Temur Movarounnahrda mo'g'ul xonligidan mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzilmaguncha vaziyatni tuzatish mumkin emasligini to'la angladi va bu yo'lda keskin kurashga bel bog'ladi. Temurning bu g'oyasini mamlakatni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan barcha sotsial kuchlar, ayniqsa har tomonlama kata nufuzga ega bo'lgan feodal zodagonlar astoyidil qo'llab-quvvatladilar.

Movarounnahrni o'ziga bo'ysundirib, hokimyatni mustaqil o'z qo'liga olgan Temurning bundan keyin uyushtirgan harbiy yurishlari talonchilik xarakteridagi urushlar bilan qo'shib olib borildi.

«Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur»da keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda kata o'lja olishga umid bog'lagan Temur o'zining so'nggi, Xitoyga qilgan yurishiga zo'r tayyorgarlik ko'rgan. Bu paytda Samarqandda yashagan Ibn Arabshoh bu voqealardan yaxshi xabardor bo'lganligi uchun ham bu haqda keltirilgan ma'lumotlari o'zining originalligi, to'laligi bilan alohida ilmiy kasb etadi.

Shuningdek, muallifning Temur vafoti va uning vafotidan keyin darhol sodir bo'lgan voqealarga oid keltirilgan ma'lumotlari tarixchilar tomonidan yuqori baholanib, qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, tarixiy haqiqat tiklanib, Temur hamda temuriylar shuhrati nafaqat O'zbekistonda balki butun jahonda tantana qilib, tom ma'noda ikkinchi umrini boshladi. Muhimi, Italiya, Fransiya va boshqa davlatlarda Sohibqiron siymosi o'rinli baholandi va abadiylashtirildi. Ibn Arabshohning «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» asari Amir Temurga va uning zamoniga bag'ishlangandir. Ibn Arabshoh shaxsiy sabablarga ko'ra Amir Temurga nisbatan dushmanlik ruhidagi mualliflar jumlasidan edi. Bu hol uning asarida to'la aks etdi. Shunday bo'lishi tabiiy edi, chunki jahon tarixidagi eng yirik arboblardan hech biri va hech qachon adabiyotda bir xil, bir ma'noda baholangan emas. Ularning hayoti va faoliyati to'g'risidagi bilimlar jamlanishi jarayonida ularning tarafdorlari bilan g'animlari o'rtasida, tabiiy, bahslar bo'lib turgan, ijobiy va salbiy yoki betaraf tarzdagi va shu kabi turli-tuman fikrlar aytib kelingan.

ADABIYOTLAR:

1. Axmedov B. Amir Temur darslari. "Sharq" nashriyoti. – T.: 2000.
2. Ibn Arabshoh «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» (Temur tarixida taqdir, ajobiyotlar) – T.: "Mehnat" 1992.
3. Pulatova M. Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur" asarida Amir Temur obrazi: Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur" asarida Amir Temur obrazi //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T.: 2. – №. 2.
4. Бартольд В.В. Улугбек и его время: О погребении Тимура: Л.Зимин, Потребности смерти Тимура: Я.Г.Гулямов, к вопросу о традиции: А.А.Семенов. Надписи на надгробиях Тимура: К.Шахурин. Еще раз о погребении Тимура.
5. Якубовский А.Ю. Тимур (опыт краткой характеристики). – "Вопросы истории", Москва, №8-9.
6. Дадабоев О. О степени исторической достоверности образа Амира Темура в драме К.Марло «Тамерлан Великий». Вестник Челябинского государственного университета. 2013. № 29 (320). Филология. Искусствоведение. Вып. 83. С. 37–39.
7. Неру Джавахарлал. Открытие Индии. Перевод с английского – Т.: 1965, стр. 242-250.